

**KIKBOKS SPORT TURINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY
YONDASHUV USULLARI**

Zaydullaeva Jibek Altayevna

Alfraganus Universiteti

Sport faoliyati kafedrasida stajyor o‘qituvchisi

Uzbekistan, Toshkent

zibekzajdullaeva35@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada kikkoks sport turini yanada rivojlantirishning muhim tomonlari va usullari ko‘rib chiqilgan.

Annotation

This article examines important aspects and methods for further developing the sport of kickboxing.

Kalit so‘zlar: Kikkoks, sport tadbirlari, harakat aniqligi, sport infratuzilmasi, marketing.

Key words: Kickboxing, sporting events, movement accuracy, sports infrastructure, marketing.

Dolzarbligi: Hozirgi paytga kelib barcha spor turlari kabii, kikkoksport turiga qiziquvchilarning soni ortib bormoqda. Sport turini rivojlantirishda keng miqyosda turli tarmoqlarda turli usullar ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, sport infratuzilmasi, tadbirlar marketingi, tomoshabinlar jalb qilinishi, homiylik shartnomalari va sport xizmatlarini sotish orqali sezilarli darajada xalq orasiga, yoshlar tarkibiga tanitish mumkin. Kikkoks zamonaviy yakkakurash sport turlaridan biri bo‘lib, so‘nggi yillarda nafaqat sportchilarning ko‘pligi, balki tomoshabinlar qiziqishi bilan ham ajralib turadi. Kikkoks sport turini ommalashtirish orqali sport turini tanlovchilar samaradorligini oshirish

ilmiy –amaliy anjuman

imkoniyatlari mavjud bo‘lib, ularning ushbu sport turini yanada rivojlantirishlari uchun asosiy bo‘g‘in hisoblanadi.

Kikboks sport turini rivojlantirishda quyidagi usullar amalga oshiriladi:

1. Sport tadbirlarini tijoratlashtirish – musobaqalar, turnirlar va liga tizimlarini rivojlantirish orqali yoshlar orasida qiziquvchilar sonini kengaytirish mumkin.

2. Sport infratuzilmasini rivojlantirish – sport klublari, mashg‘ulot markazlarini ko‘paytirish. Bu nafaqat sportchilarning faoliyatini optimallashtiradi, balki zamonaviy infratuzilma orqali sport xizmatlari va zamonaviy yondashuv imkoniyatlarini kengaytiradi.

3. Marketing va homiylik strategiyalari – reklama, brendlarni qo‘llab-quvvatlash va homiylik shartnomalarini kengaytirish orqali aynan shu hududlardagi sportchilar e‘tiborini oshirish mumkin. Homiylik va reklama strategiyalarini sport marketingi bilan uyg‘unlashtirish orqali kichik sovg‘alarni musobaqalar paytida tarqatish orqali sportning ommalashuviga va jamiyatdagi ijobiy imidjiga ham hissa qo‘shadi.

4. Sport turizmi va jamiyatni jalb qilish – ushbu tadbirlar orqali yoshlar, sport ixlosmandlari va tomoshabinlarni qamrab olish, turizmni rivojlantirish va sportning ijtimoiy ahamiyatini oshirish tavsiya etiladi.

5. Innovatsion texnologiyalarni - joriy etish onlayn platformalar, mobil ilovalar va virtual trening tizimlarini tadbir va mashg‘ulotlarga integratsiya qilish orqali sport biznesini modernizatsiya qilish mumkin. Bu yangi shug‘ullanishni boshlovchi sportchilarning mustaqil tayyorgarligini oshirish bilan birga, musobaqalarni keng auditoriyaga yetkazish imkonini beradi.

Xulosa qilib oladigan bo‘lsak, kikboks sport turini rivojlantirish strategik yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu sport turining ommalashuvi sport tadbirlarini tijoratlashtirish orqali yanada kuchli ta’sir qiladi. Zamonaviy infratuzilma va innovatsion texnologiyalar sport subyektlari uchun yangi usullar albatta qiziq hamda muhim hisoblanganligi uchun ham tezlik bilan rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Агафонов А.И., Характеристика технико-тактической подготовки юных кикбоксеров., -Фундаментальные исследования, 2014.
2. Клещев В.В. Формирование индивидуально-типовых манер ведения боя в кикбоксинге. // Автореферат. – Москва, 2006.
3. Лукьяненко В.П., Петрякова В.Г., Денисенко В.С. Особенности физической подготовки юных спортсменов, занимающихся кикбоксингом в системе дополнительного образования. Известия ТулГУ. Физическая культура. Спорт. 2020.
4. Buse G.J. Kickboxing. In: Combat Sports Medicine. Springer London, 2008;331–350.
5. A.Kuziyev “Kikboks sportini rivojlantirish orqali sport biznesining samaradorligini oshirish”. 02.11.2026. <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1434> .